

QADIMGI HINDISTON MADANIYATI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Hakimov Sherzod**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Hikmatullayev Davlatbek**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola qadimgi sivilizatsiyalardan biri bo'lgan Hindiston dini haqida yozilgan. Dunyoda keng tarqalgan dinlardan biri bu Hindistonda vujudga kelgan buddaviylik dini hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Mohenjo-Daro, Kot-Diji, Hind vodiysi, Delmun, Indra, haoma.

АННОТАЦИЯ: Эта статья посвящена религии Индии, одной из древнейших цивилизаций. Одной из распространенных религий в мире считается буддизм, зародившийся в Индии.

Ключевые слова: Мохенджо-Даро, кот-Диджи, долина Инда, Дельмун, Индра, Хаома.

ANNOTATION: This article is about the religion of India, one of the ancient civilizations. One of the most common religions in the world is Buddhism, which originated in India.

Keywords: Mohenjo-Daro, Kot-Diji, Indian Valley, Delmun, Indra, haoma.

KIRISH. Rigvedaning minglab maddiyalari va veda adabietining keyings davrlarga tegishli ko'plab yodgorliklari bizga oriylarning diniy e'tidodlari haqida tasavvurlar beradi. Boshqa xalqlarning miqlari bilan taqqoslash ba'zan veda dinning uzoq o'tmishdagi hind-yevropa manbalariga ishora qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Vedalaring Qadimgi Eron dini va madaniyatiga yaqinligi, ayniqsa, sezilarli, zero oriy qabilalaring dind guruhi ancha keyin eroniy oriylardan ajralib chiqqan. Hindistonda ham, Eronda ham Mitra xudosiga sig'inishgan, narkotik xususiyatga ega bo'lgan mudaddas "haoma" ichimligini iste'mol qilishgan. Hatto qadimgi hindlar va eroniylarning ayrim miqlari ham umumiy bo'lgan. Rigveda madhiyalaridagi mifologik tavsiflar ko'pincha tabiat hodisalari bilan bog'liq. Xudolarning muhim iyerarxiyasi kuzatilmaydi, ammo ayrim personajlar miqlarning sevimli qahramoniga aylanadi. Masalan, Rigvedaning ko'plab madhiyalarida o'z lashkarlariga bosh bo'lib, qo'lga "chaqmoq" tutgan ma'bud Indraning shaklsiz mahluqlarga qarshi kurashi haqida hikoya qilinadi. Ma'budlar osmonda yashaydi deb hisoblashgan, ularning nomi – deva ham osmon, yorug'lik tushunchalari bilan bog'liq. Veda matnlarining ayrim qismlari devalarning odamsifat qiyofasiga ishora qiladi, ammo bu qiyofaning aniq ifodasi yo'q va fanda oriylar xudolarning tasviriga sig'inmaganlar, deb hisoblash qabul qilingan.¹ Qadimgi Hindiston dini ko'pxudolikka asoslangan din hisoblanadi. Hindistonda buddaviylikdan tashqari xristianlik, islom dini va bir qancha mahalliy dinlar ham keng tarqalgan. Qadimgi Hindistonda patriarxal oila hayoti bilan bog'lamgan olovga topinish odati ayniqsa keng tarqalgan. Ota sifatidagi olov uyning muqaddas boshlig'i hisoblangan.

¹ Shuhrat Ergashev "Qadimgi sivilizatsiyalar". Toshkent "O'zbekiston"-2016. 190-bet.

Uydagi o'choq qadimgi kata oilaviy jamoalarda ham, yakka oilaning xususiy xo'jaligida ham oila xo'jayini – patriarx (grixapati) boshliq bo'lgan uyda (grixya) oilaviy hayotning markazi bo'lgan. Biroq olov xudosi Angi sharafiga yozilgan va Rigvedada saqlangan gimnlardan birida, olovga topinish “yog'och parchalari bir-biriga qattiq ishqalanib” o't hosil qilish usuli birinchi marta kashf etilgan qadimgi zamonlarga oiddir, deyiladi.²

Mil. avv. VI asrlarda Shimoliy Hindiston hududida yigirmadan ortiq kichik davlatlar yuzaga keladi. Ushbu davlatlarning boshida kshatriylar kastasiga tegishli mahalliy podsholar turar edi. Ammo mutaxasislarning fikricha ayrim podsholiklardagi sulolalar oriylardan bo'lmagan. Shunday bo'lsa-da tashkil topgan eng yirik davlatlarga Kashala, Magatxa, Gandxar, Malla, Anga, SHaxya, Panchala va boshqalar misol bo'la oladi. Yuqorida ta'kidlangan davlatlar o'rtasida doimiy o'zaro urushlar bo'lib o'tgan. Ular butun Hindistonda hukmronlik qilishga intilganlar. Mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida mamlakatda avvalgi dinlardan farq qilgan qator diniy oqimlar paydo bo'ladi. Ulardan asosiysi buddaviylik edi. Rivoyatlarga ko'ra unga Siddxartxa Gautama ismli shahzoda asos solgan edi. Tez orada uning ta'limoti butun Hindistonga tarqalib ketadi. Buddaviylarning fikri to'rt asosiy haqiqatga suyanadi. Ya'ni dunyo azob-uqubattan iborat, uning sababi esa insonlarning nafs va xohishlari deb ta'kidlangan. Azobdan qutulish uchun odamlar o'z nafslarini tiyishlari kerak edi. Bu yo'lda insonlar Buddha aytib o'tgan qoidalarga rioya qilishlari lozim deb bo'lgan. Buddaviylik insonlarni ilm va ma'naviy komillikka chorlovchi dinga aylanib borgan. Mil. avv. V-III asrlar Hindiston tarixida Magadha-Mauriya davri deb nomlanadi. Magadha qabilaviy ittifoqi tez orada kuchli qo'shinga ega bo'lgan markazlashgan davlatlardan biriga aylanadi. U hozirgi Bixar shtati hududini egallagan edi. Mil. avv. IV asrga kelib boshqa podsholiklar bilan qonli kurashdan so'ng ustunlika erishadi va Gang vodiysida o'z hokimiyati o'rnatadi. Hind afsonalarida Magadha podsholari hasis va shafqatsiz qilib ko'rsatilgan. Shuningdek ularning lashkarlari soni juda ko'pligi alohida ta'kidlanadi. Magadha podsholarining harbiy kuchlari maosh oladigan (yollanma) qo'shin bo'lgan. Ularni ta'minlay uchun bo'ysundirilgan hududlar aholisidan doimiy o'lpon olingan. Gang daryosi havzasidagi davlatlar Magadha hukmronligi ostida birlashish jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda, mil. avv. 327- yilda Hindistonning shimoli-g'arbidan Aleksandr Makedonskiy (Sharqdagi ismi Iskandar) qo'shinlari mamlakatga kirib keldilar. Mahalliy davlatlarning bir qismi yunon-makedon askarlariga qarshi kurash olib boradilar, ayrim podsholiklar esa ularga bo'ysunadi. Masalan, Panjobdagi mahalliy podsholardan biri Por o'zining 30 ming piyoda, 4 ming otliq, 3 ming jang arava va 200 ga yaqin fillardan iborat qo'shini bilan Aleksandr Makedonskiyga qarshi jang qilgan. Ammo yunon-makedon qo'shinlaridan yengiladi. Aleksandr Makedonskiy uning mardligiga tan berib, posholigini o'ziga qaytarib beradi. Mil. avv. 325-yilga kelib yunon-makedon qo'shinlari ayrim garnizonlarni Hindistonda qoldirib, mamlakatni tark etadilar. Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng (mil. avv. 323-yilda) bosqinchilarga qarshi harakatga Magadhadan kelib chiqqan Chandragupta Maurya boshchilik qiladi. Mil. avv. 317-yilda Makedoniya qo'shinlarining oxirgi garnizonlari Hindistondan jo'nab ketadilar. Chandragupta ichki urushlarda Magadha hukmdori ustidan g'alaba qozonadi va uning poytaxti Pataliputrada (hozirgi Patna) taxtga o'tiradi. Shu tariqa Mauriya sulolasiga asos solinadi, Chandragupta butun Shimoliy Hindistonni o'ziga bo'ysundiradi.³ Er. avv. I ming yillik o'rtalarida yangi diniy e'tiqodlar vujudga keldi. Ularning eng muhimi budda dinining “Uch qimmat”i edi. Bu Buddaning o'zi, draxma-uning ta'limoti va sangxa-unga e'tiqod qiluvchilar jamoasi hisoblanadi. Buddha dinining asoschisi Shaq'ya zodagon urug'idan bo'lgan shaxzoda Sidxartxa Gautama bo'lgan. Uzoq azob chekishlardan so'ng, daraxt soyasida Sidxartxaga yorug'lik ma'rifati tushadi. Shundan so'ng, Sidxartxa ma'rifatli (Budda) bo'ladi. Buddha ta'limotining o'ziga xos xususiyati

² V.I.Abdiyev “Qadimgi Sharq tarixi”. Toshkent-1964. 702-bet.

³ D.J.Urakov “Jahon tarixi”. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”-2020. 106-107-betlar.

u hayotni azoblanish deb tushuntiradi. Azoblanish o'lim va kasalliklar bilangina bog'liq emas, balki eng yaxshi bo'lib qayta tug'ilishlar zanjiri bilan bog'langan. Azob ko'rishning sababi yangi hayotda boyluk, huzurhalovat, yaxshi hayot kechirish yoki yaxshi taqdir uchun kuyib pishishdir. Qiynalishlardan qutilishning yo'li o'z ruhi, yurishturishi, ustidan to'la nazorat o'rnatish va buning oxirgi maqsadi nirvana ("uchish, sun'iy") bo'lib, shundan so'ng, kishi zanjimi yorib o'tadi va u boshqa tugilmaydi. Buddaviylikni ilk o'qituvchini tasvirlash an'anasi yo'q edi, faqat budda ramziga tayanadigan asosiy e'tiqod inshooti stupa—soyabon ostidagi sun'iy tepalik edi. Dindorlar stupa va undagi Budda sochi yoki tishiga chapdan o'ngga (quyosh bo'yicha) o'zini gunohlardan holi qilish uchun bu dunyo hayotidan u oilasidan, mulkidan tashqi an'anaviy aloqalardan ruhiy bog'lanishlardan kechishi kerak. Budda muridlari qizgish kiyimda, sochlari taqir olinib, qishloq va shaharlarni kezib, sadaqa so'rab yurganlar. Ularni baxshu (gadoy) deb ataganlar.

Hinduizm asosini qadimgi Hindistonning arxaik e'tiqodlari daraxtlar, tog', suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabilarga sig'inish tashkil etadi. Hozirgi kunda ham hinduizm, qadimgi davrdan boshlab ma'buda onaga sig'inish katta rol o'ynaydi. Hinduizm bosh yaratuvchi — xudo g'oyasi mavjud. Bu xudo Vishna bo'lib, u hayvonlar sirtlon, baliq, tosh-baqalar, yoki insonlar odatda qora tanli podsho, yoki cho'pon (krishnal) qiyofalarida namoyon bo'ladi. Vishna boshqa kichik xudolar timsoliga kirishi mumkin. Vishna odatda podsho tojida, ba'zida dunyo iloniday yastanib yotgan holda tasvirlanadi. Boshqa hinduistlar bosh xudo deb sopol parchalarini osgan asket (davrish) yoki raqqos qiyofasida ifodalanadigan Shivani hisoblaydilar. Shivaga ko'pincha unga bag'ishlangan muqaddas ho'kiz hamkorlik qiladi. Qadimgi davr oxiri va hozirgi kunlarda hinduistlar Vishna va Shivaga e'tiqod qiluvchilarga bo'linadi. Hinduistlarning muqaddas matnlari vedalar hisoblanadi. Hinduizm ibodatxonada toat-ibodat qilish rasm bo'ldi. Bayram tantanalarining eng muhim qismi tantanali yurishlar, namoyishlar bo'lib, xudoning tasviri olib yurilgan. Ibodatxona oldida uning xizmatchilari kohinlar, raqqoslar, musiqachilar yashagan. Hinduizm mafkurasining asosiy belgilari «Bxagavadgita» («Xudo qo'shiqlari») poemasi bo'lib, «Maxabxarat» tarkibiga kiritilgan. Hinduizmning axloqida cheksiz sabr-toqat qilishga chaqiriladi. Ijtimoiy munosabatlarda inson muloqoti o'z ijtimoiy doirasi bilan cheklanish kerak. Kasta bo'yicha kasbni o'zgartirish ta'qiqlanadi. Nikohni bolalikda o'qitish odati tarqalgan. Bevani o'z erini gulxanda kuydirgan paytda o'ziga olov berishi eng savob ish hisoblangan.⁴ Qadimgi Hindistonda hinduizm diniga ham sig'inishadi. Bu din ham hid xalqining muqaddas hisoblangan dinlaridan biridir.

Qadimgi Hindistonda juda ko'p urug' qabila va elatlar yashagan. Ularning xo'jaligi, turmush tarzi har xil bo'ganligi uchun diniy e'tiqodlari ham turlicha bo'lgan. Hindistonda yashagan aholi hayotida tabiat hodisalariga, ajdodlari ruhiga, tog'-toshlarga, hayvonlarga, suv va daraxtlarga sig'inish davom etgan. Ularda oy, quyosh va olovga sig'inish keng tarqalgan edi. Hindlar Agni olov, Indra momaqaldiraq, Aditinani esa hosildorlik xudosi deb bilganlar. Hindistonda diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi ham boshqa xalqlar kabi ularning turmush tarzi va xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan. Davlatlar vujudga kelishi munosabati bilan Hindistonning ko'p joylarida braxman dini keng yoyilgan. Bu din m.av. IX -V III asrda vujudga kelib, uning xudosi Braxma bo'lgan. Bu dinning ruhoniylari braxmanlar deyilgan. Ularning taiim o'ti bo'yicha Braxma olam va odamning yaratuvchisi hisoblangan. Aditinani "hammaning onasi", "ham m'narsaning mohiyati", "abadiyat", "varatiigan va yaratuvchi" kabi nomlar bilan ulug'laganlar. Dastlab momaqaldiraq, hosildorlik xudosi hisoblangan Indra keyinchalik hokim, hukmdor va podsholar homiysiga aylangan. Indra so'zining o'zi ham podsho, hokim, hukmdor kabi ma'noni anglata boshlagan.⁵ A.Kabirovning "Qadimgi Sharq tarixi" kitobida Hind sivilizatsiyalari va

⁴ R.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi". Toshkent-2009. 182-184

⁵ A.Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi". Toshkent "Tafakkur"-2016. 291-292-betlar.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

tashkil topgan shahar-davlatlari haqida yozilgan. Hind sivilizatsiyasida shakllangan shahar-davlatlarning madaniyatlari ham bir-biridan farq qilib turgan.

XULOSA: Qadimgi Hindiston madaniyati insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan. U boy merosi, rivojlangan din va falsafasi, ilg'or ilm-fan yutuqlari, hamda betakror san'ati bilan ajralib turadi. Hindiston madaniyati nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlar uchun ham ilhom manbai bo'lib, butun dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan. Biz o'rgangan bu madaniyat haqida tarixiy adabiyotlarda batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shuhrat Ergashev "Qadimgi sivilizatsiyalar". Toshkent "O'zbekiston"-2016. 190-bet.
2. V.I.Abdiyev "Qadimgi Sharq tarixi". Toshkent-1964. 702-bet.
3. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
4. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
5. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
6. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
7. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
8. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
9. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
10. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
11. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
12. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
13. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
14. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
15. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
16. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. –

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

17. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).